

# Xorazm viloyatida sayyor qabul

2026 27 March

Urganchda Uzbekistan Airways aviakompaniyasining shahar aholisi, agentlik hamjamiyati va OAV vakillari bilan ochiq muloqot shaklida uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tadbir davomida ishtirokchilar yo'nalish tarmog'i, tarif siyosati, agentlik hamkorligi va mintaqa havo qatnovlarini rivojlantirish istiqbollarning asosiy masalalarini muhokama qildilar.





Aviakompaniya vakillari Urganchga amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan yoʻnalishlar haqida batafsil maʼlumot berishdi. Muloqot chogʻida jadvalni optimallashtirish boʻyicha takliflar, jumladan, Silk Avia aviaqatnovlarini qayta taqsimlash orqali kechki vaqtda Uzbekistan Airways aviaqatnovlarini sonini koʻpaytirish masalasi muhokama qilindi.







Uchrashuvda Urganchdagi yangi xalqaro aeroport ishga tushirilgach, aviaqatnovlarni yanada rivojlantirish istiqbollari ham qayd etib o'tildi. Ishtirokchilar 2026-yilgacha rivojlanish rejalarini hisobga olgan holda yangi yo'nalishlarni ochish imkoniyatlari va yo'nalishlarning rentabelligini muhokama qildilar.





Uchrashuvning ochiq shakli ishtirokchilarga o'zlarini qiziqtirgan savollarni to'g'ridan-to'g'ri berish va Uzbekistan Airways vakillaridan bu savollarga javoblarni olish imkonini berdi, bu esa aviakompaniyaning shaffof muloqot va mintaqada aviatsiya sohasini birgalikda rivojlantirishga intilishini yana bir bor tasdiqladi.



